



## Fayyber Ijodida Sonetlarning Ijodiy Tahlili

**Ziyoda Saparbayeva Rustamboy qizi**

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi**

ziyodasaparbayeva@gmail.com

**Xudoynazarova Dildora Shonazar qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz tili o'qituvchisi

xudoynazarovadildora020@gmail.com

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada sonetning yozilish tartiblari, qofiyalanishi, qayerda paydo bo'lganligi haqidagi umumiy ma'lumotlarni berish bilan birga, aynan sonetning Faynberg ijodidagi o'ziga xos o'rnini, uni yozishdan maqsad nimaligi, fikrlar rivoji va xulosalar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** sonet, katren, terset, qofiyalanish, "Sonet falsafasi yoxud sonet borasida kichik yo'riqnoma", sonetto, jarangdor qo'shiq

### **Kirish**

Har bir ijodkor ijodida o'ziga xos o'rin tutgan she'riy shakllar bo'lishi tabiiy, jumladan, Aleksandr Faynberg ham turli xil she'r shakllardan foydalangan bo'lib, uning ijodida sonetlar ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Sonet atamasi italyanacha «Sonetto» va provansal lahjasidagi «Sonet» so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, qo'shiq, jarangdor qo'shiq ma'nolarini anglatadi. U mustaqil she'riy janr sifatida dastlab Sitsiliya maktabi shoirlaridan Jakomo da Lentini tomonidan XIII asrning boshlarida qo'llanilgan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR:**

Sonet 14 misradan iborat turg'un she'riy shakl. U qat'iy qonun-qoidalar asosida yaratiladi. U 4 banddan iborat bo'lib, 1- va 2- bandlar 4 misradan (katren), 3- va 4- bandlar 3 misradan (terset) tashkil topadi. Katrenlar, ko'pincha, avav avav yoki avva avva shaklida, tersetlar esa cdc ded yoki cde cde shaklida qofiyalangan bo'ladi. Eng muhimi — qofiyalar to'la va jarangdor bo'lishi lozim. Sonet faqat shaklan emas, mazmunan ham shunday talablarga javob berishi kerak. Shu ma'noda har kim ham sonet yozishga qodir emas, uning ham "yuk"ini ma'lum ma'noda ko'tara olgan yoki jur'at qila olganlarga yoza oladi, desak, adashmagan bo'lamiz. Chunki so'z shunday zalvorli va o'tkir narsaki, u tekkan joyiga bemalol kirib bora oladi; So'z shunday bir ilohiy kuchki, bevosita kishining sezimlariga ta'sir qiladi, hissiyotlarini, o'y-xayollarini jumbushga keltiradi.

Sonet qonun-qoidalariga qaytadigan bo'lsak, uning 1-bandida asosiy fikr aytiladi, 2-bandida bu fikr rivojlanadi, 3-bandda yechim, 4-bandda esa xotima ifodalanadi. Sonet haqida ko'pchilik umumiy tasavvurga ega. Sonetning faqat o'n to'rt qatorli she'r emas, balki murakkab hamda nihoyatda yuksak mahorat talab qiladigan she'riy shakl ekanini hamma ham bilmaydi. Zero, sonet buzilmas qonun asosida yaratiladigan g'oyaviy-badiiy lirik asardir.

Mumtoz sonetning go'zal namunalarini Dante, Petrarka, Bokachcho, Kamoens, Ronsar, Eredia, Bodler, Mitskevich, Bryusov, Kolar, Bexer va boshqa o'nlab mashhur shoirlar ijodida uchratish mumkin. Ayni paytda, satrlar soni va joylashuvi qonuni buzilgan, lekin sonet deb atalgan she'rlar ham uchraydi. Ularda faqat o'n to'rt satrli umumiy shakl saqlanib qoladi, boshqa janriy talablar esa bajarilmaydi. Masalan, V. Shekspir, J. Don singari ingliz shoirlari turli xil qofiyalangan har biri to'rt misradan iborat uch band va ikki misradan tashkil topgan bir bandli shaklni, P.Neruda esa, katren va tertsetlarga bo'lingan, lekin qofiyasiz o'n to'rt misrali she'rni sonet, deb taqdim etadilar. Bular orasida, ayniqsa, Shekspirning bir yuz ellik to'rt she'ri sonet nomi bilan mashhur. Sonetning qonun-qoidalarini buzish



(bandlarning joylashuvidami yoki katrenda qofiyaning har xil — ikkitadan ortiq bo‘lishidami) mumkin emas. Bu borada XX asrning atoqli olmon shoiri Yoxannes Bexerning «Sonet falsafasi yoxud sonet borasida kichik yo‘riqnoma» maqolasida bildirgan fikrlari alohida ahamiyatga ega. Bexer qat‘iy qonun asosida yaratilmagan barcha sonetlarni inkor etib, ularni «o‘n to‘rt satrli shig‘irlar», deb ataydi va ularning sonetga aloqasi yo‘q, degan qat‘iy xulosaga keladi, sonet «torlikda kenglikni» bera oladigan, yuksak mahoratni talab etadigan she‘riy shakl, uning buzilishi aslida ma‘lum ma‘noda yo shoir mahoratining yetishmasligini yoki uning qiyinchiliklardan qochishini anglatadi.

Endi Faynberg sonetlariga to‘xtalsak:

*Quyoshli, to‘rtburchak dalalardan to  
Tizma tog‘largacha cho‘zilgan Vatan –  
Yo‘llarning girdida bo‘lib girgitton  
Gumbazdek teraklar turarlar qator.*

*Dalalarni kezdin qadamma-qadam,  
Teodolit Ko‘tarib, o‘lchadim tanob.  
Loysuvoq uylarda simirdim chalob,  
Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom.*

*Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim –  
O‘zbekistondadir xokim, turobim.  
Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.*

*Mag‘rur parvoz etar burgut falakda.  
O‘t tishladim. Labda sho‘r ko‘z yosh. Bu dam  
Ham dardni, ham baxtni tuydim yurakda.*

Sonetni chuqur tahlilga tortadigan bo‘lsak, u biz yuqorida sanab o‘tgan qonun-qoidalarga deyarli mos keladi, ma‘no jihatdan qaraganda, chindan ham, 1-baytda asosiy fikr, ya‘ni Vatanning cheksiz mehri, poyonsiz sarhadlari, hatto mehribon tabiatning jonli chizgilari chiziladi, go‘yo. Shuningdek, 2-bandida aynan bu fikrlarini rivojlantirib borgan holda, sodda va jo‘n chizgilar bilan Vatan murakkab emas, har bir soddalikning ichida Vatan, har bir mehnatingning ortida Vatan, degan fikrlarni kelajak avlodlarga yetkazib bermoqchi bo‘ladi shoir. 3 – banddagi so‘zlar esa go‘yo yurakdan otilib chiqadi va butun she‘r orqali yetkazib bermoqchi bo‘lgan fikrining asosiy qismini ushbu band orqali yoritib beradi. O‘zbekistonga bo‘lgan cheksiz mehrini izhor etgan holda, Yevropaga shunday jasorat bilan yuzlanib, “hatto seni tanimayman ham!”, - deydi shoir. Va nihoyat 4-bandga tahlil qiladigan bo‘lsak, bu bayt oddiygina “qizil she‘r” tipidagi she‘r emas, ya‘ni “Vatansiz men kimman”, “Vatan borimsan”, - deganday maqtovlardan iborat emas, u betakror! Burgutlarning falakda uchishi, ko‘z yosh to‘kishi, dardni va baxtni bir vaqtda his qilishi orasidagi bog‘liqlikni har kim o‘zida obrazlar yaratish orqali ilg‘ashi mumkin. Sababi, shoir xulosani yaqqol ko‘rsatib bermaydi, yo‘nalish beradiki, har bir she‘r ixlosmandi, har bir she‘r o‘quvchisi o‘yga tolsin, bedor bo‘lsin va anglab yetsinki, Vatan quruq so‘zlardan iborat emas! Shoir burgut uchishidek parvozlarga Vatani hali yo‘llay olmagan bo‘lsa-da, Vatani qanot bo‘lmoq umidi bilan yashaydi va bu umid unga ko‘z yosh to‘ktiradi. To‘lig‘icha ado etib ulgurmagani burchi uchun kuyunsa, hali ham umid borligi unga dalda beradi va muhimi burgutday olg‘a borish kerakligi unga chinakam baxtni his qilishiga ko‘maklashadi.

Keyingi sonet ham aynan “nishonga tegadigan” she‘r bo‘lgan, sababi so‘z erkinligi bor bo‘lgan jamiyat fuqarolarining ham so‘z aytilishdan qo‘rqishlari – tili bor lekin gapirmaganlik orqali ifodalansa, hamma narsani indamay o‘tkazib yuborishlari, to‘lqinlanib, mavjlanib turadigan suvning ham



indamay turishi misolida, kim nima desa ko'nib ketaverish esa daraxtlarning o'rmonlar kesilsa ham indamasliklari vositasida majoziy bo'yoqlarda aks ettirilgan. Shaxsiy fikriga ega bo'lmaslik - jamiyatning asl tanazzuliga sabab bo'ladigan vosita ekanligini butun she'r mazmunidan anglab olishimiz mumkin.

*Kimning tili yo 'qdir, yo 'q unda huquq,  
Ummonlar suviga biz og 'u qo 'shdik.  
Delfinlar otilib qirg 'oqqa tushdi,  
O'lsa ham biror so 'z aytishgani yo 'q.*

*Daraxtlar gapirmas, kesilar o 'rmon.  
Tog ' boshiga yugan solar lokator.  
Sahro osmonida lovullar yadro,  
Yonadi tili yo 'q maysa, o 't-o 'lan.*

*Suv gap qaytarmaydi, gap qaytarmas tosh,  
Sher olovga sakrar ursang, egib bosh.  
Uchar qushlar o 'lar to 'p otganda o 'q.*

*Yaralgandan buyon bu ko'hna dunyo  
Befarqmiz. Uyatdan o 'lganimiz yo 'q.  
Ne uchun til berding odamga, Xudo?!*

Xotima tarzda berilgan baytlar esa odamlarga ta'sir qilmasdan qolmasa kerak, sababi "Haliyam befarqmiz, lekin o'lmadik" deb kinoya vositasida kishilarni uyg'oqlikka, ogohlikka chaqiradi, shoir. Bunday jamiyatdan bezgan otashparast shoir "Ne uchun til berding odamga, Xudo?! ", - deya Allohga tavallo qiladi, befarq odamlardan yozg'iradi. Umuman olganda, shoir sonetlarining har biri ancha jiddiy yoki keng qamrovli fikrlarni tashishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aleksandr Faynberg "Qoramaga qasida", Tosh, 2001;
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/abdulla-she-sonet-sirlari-2009>;
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sonet>.